

ROSSIYA VA UKRAINA O'RTASIDA BO'LIP O'TAYOTGAN QUROLLI  
MOJARODA XUSUSIY HARBIY KOMPANIYANING JANGOVAR QO'LLANILISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7881556>

Raximbekov Ilg'orjon Abdullajonovich

*Chirchiq olyi tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti*

*Taktika kafedrasi Umumqo'shin bo'linmalar taktikasi sikli katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur ilmiy maqolada xususiy harbiy kompaniyalarning jahon geosiyosatiga hamda mamlakatlarning iqtisodiy tashkilotlariga qanday ta'sir ko'rsatilayotgani va ulardan o'z manfaatlari yo'lida foydalanayotganliklari ifodalab o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *xususiy harbiy kompaniya, ixtisoslashtirilgan tijorat korxonasi, harbiy mojaro, yollanma, yo'riqchi, toifalangan sanoat obyektlar, dengiz qaroqchilar, uhba, mamlakatning-cho'ntak Armiyasi, maxsus tayyorlanganlar, tor ixtisosga ega harbiy mutaxassislar, jangari, muntazam qo'shinlar, xorijiy legion.*

**Аннотация:** В данной научной статье авторы рассматривают какое влияние имеют частные военные компании в мировой геополитике и военно-промышленных организациях и компаниям ряд государств которое применяют их в своих интересах.

**Ключевые слова:** частная военная компания, специализированное коммерческое предприятие, военный конфликт, наёмник, инструктор, категорированный промышленный объект, морской пират, амуниция, карманная армия государства, специализированный военный специалист, боевик, регулярная армия, иностранный легион.

Xususiy harbiy kompaniya (ingliz tilida Private militari company)- ixtisoslashtirilgan tijorat korxonasi bo'lib, qo'riqlash, himoya (mudofaa) qilish, harbiy mojarolarda ishtirok etish, razvedka ma'lumotlarini yig'ish, strategik va operativ jihatdan operatsiyalarni rejalshtirish, qurolli kuchlarni tayyorlashda yo'riqchilik qilish, maslahat berish, logistika hamda boshqa xizmatlarni amalga oshiradi, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslarni qo'riqlash va himoya qilish, yirik toifalangan sanoat obyektlarni qo'riqlash, gumanitar yordam yuklarni, dengiz qaroqchilar mavjud bo'lgan hududlarda kemalarni kuzatib borish xizmatlarini bajarishga ixtisoslashgan, ammo ushbu kompaniyaning xodimlari jangovar olib borilayotgan hududlarda ham ko'rinish bermoqdalar.

Jahonning turli mamlakatlarining tegishli qonuniga binoan xususiy harbiy kompaniya (XHK), uning a'zolari yollanma va noqonuniy tashkilot hisoblanib, ushbu davlatlarning qonunlariga zid bo'lib, sudning qaroriga asosan jinoiy jazoga tortishlari mumkin.

# JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH

## VOLUME-6, ISSUE-4 (30-APRIL)

Xususiy harbiy kompaniyaning tarixi to'xtaladigan bo'lsak, o'rta asrlarda ko'p Yevropa mamlakatlarida yollanma askar (bo'linma) lar mavjud bo'lib kelgan, qirollar va imperatorlar ularni dovyurakligi va sadoqatligi uchun qadrlar edilar, buning uchun xizmatiga ish haqi to'lanar edi.

Ko'pincha yollanmalar o'zini vatani uchun jang qilmasa ham chekinishdan ko'ra halok bo'lishni afzal ko'rар edilar.

Harbiy mutaxassislarni hamda maslahatchilarni jalg qilish amaliyoti ko'p asrlik tarixga ega, masalan (landsknextlar, gessenlar, shveytsarlar va hokazo).

Landsknext (nemischada davlatning xizmatkori)-nemis yollanmasi. 1482-1486 yillar orasida tashkil etilgan. Dastlabki paytda ozod yashovchi aholidan tuzilgan.

Shveytsariyaning yollanma qo'shinlari-XIV-XIX asrda shveytsariyalik yollanma askar va ofitserlar chet el mamlakatlarining armiyalarida harbiy va qo'riqlash xizmatiga yollanganlar.

Hozirgi paytda ham Vatikanni shveytsariyalik yollanmalar qo'riqlamoqda. Ularning shon-shuhrati oshganidan xizmatga jalg qilish yildan yilga ortdi. 1444 yili Sent-Yakob ostonasidagi jangda Karl XII ularning jasurligini, shiddatligini, tirishqoqligini ko'rib Fransiyaning xizmatiga jalg qildi va siyosatining asosiy maqsadi bo'lib qoldi. Hozirgi zamonda bunga Fransuz legioni yaqqol misoldir.

Bizning mintaqamizda ham X-XII asrlarida Somoniylar, Qoraxoniyalar, G'aznaviyalar davlatlarining qo'shinlari tarkibini asosan yollanmalar tashkil etgan. Yollanma askarlar xalqning turli toifasidan bo'lib, ularning ichida nasliy harbiylar, hunarmandlar, dehqonlar, shuningdek tayinli bir tirikchilik manbai gan kishilardan iborat bo'lgan. Yollanma askarlarning qurbati yetgani qo'shinga o'z qurol va oti bilan qabul qilingan. Qurbati yetmaganlarga uhba (amunitsiya) podshohlik tomonidan berilgan.

Birinchi bo'lib zamonaviy tushunchaga ega bo'lgan xususiy harbiy kompaniya "Watchguard internationa" Buyuk Britaniya armiyasining polkovnigi Devid Sterling tomonidan 1967 yili tashkil etilgan.

Xalqaro darajada 20-asrning 70 yillarida Buyuk Britaniyada tuzilgan "Security advisory services" xususiy firmasi katta nom qozondi, u G'arbiy Yevropa mamlakatlaridan fuqarolarni yollab harbiy anjom-aslahalar bilan ta'minlab janglarda ishtirok etish uchun jo'natar edi. 1976 yilning iyulida

Luandada (Angola) asirga tushgan Buyuk Britaniyadan yuborilgan chet ellik yollanmalar ustidan sud jarayoni bo'lib o'tdi. Ana o'shandan so'ng jahon hamjamiyatiga xususiy harbiy kompaniyalarning faoliyati namoyon bo'ldi.

Sovuq urush davrida xususiy harbiy kompaniyalar AQSH, Buyuk Britaniya, Isroil, Janubiy Afrika respublikasida (JAR) tuzilib uning faoliyati davlat tomonidan xomiylikka olindi.

Korporatsiyalarning o'zları xodimlarini harbiy pudratchi deb atab, ushbu lavozimlarda sobiq harbiylarni, urush veteranlarini, maxsus tayyorlanganlarni (spetsnaz), tor ixtisosga ega harbiy mutaxassislarni yollaydilar.

Xususiy harbiy mutaxassislar, muntazam harbiy xizmatchilarning haq-huquqlariga ega emas, shuning uchun nafaqaga, imtiyozga, yordamga va to'lovga da'volik qilolmaydilar.

Xususiy harbiy kompaniya davlat bilan shartnoma tuzadi va davlat manfaati yo'lida qo'yilgan vazifalarni bajaradi. Kompaniya mamlakatning-cho'ntak Armiyasi hisoblanadi.

Yollanish yoki o'z manfaatini ko'zlash 2000-yillarning boshida xususiy harbiy kompaniyalar xizmatiga yirik xalqaro korporatsiyalarlarning qiziqishi oshdi, chunki ularning savdo-sotig'i (biznes) beqaror bo'lgan dunyo nuqtalarida mavjud edi.

Davlat bilan shartnoma tuzish -eng foydali shartnoma hisoblanadi.

Birinchilardan bo'lib katta mablag'ni Amerikaning "Northrop Grumman" harbiy-sanoat konserniga tegishli "Vinnell Corp" XHK AQSH hukumati bilan Saudiya Arabistonining Milliy Gvardiyasini tayyorlash va ushbu mamlakatdagi neft konlarini qo'riqlash uchun 3,5 mlrd dollarlik eng yirik shartnoma tuzdi.

Macaladan mashxur amerikaniнg "Akademi" XXK (oldingi nomlanishi Blakwater) daromadining 90% ni davlat bilan tuzgan shartnoma hosil qiladi. Uning xodimlari ma'muriy binolarning qo'riqlanishi uchun kuniga 240 ming dollar kompaniyaning hisob raqamiga tushadi. 2020 yilning o'zida Iraq, Afg'oniston, Isroil, Bosniyadagi qo'riqlash xizmati uchun 688 mln dollar ishlab olishga imkon berdi. Buyuk Britaniyaning "KMS Ltd" xususiy harbiy kompaniyasi 1977 yilda Britaniya havodesant qo'shinlarining iste'fodagi mayori Devid Uoker tomonidan asos solingan bo'lib Nikaraguada "kontras" muxolifat kuchlariga yordami uchun AQSH ning MRB 1,1 mln dollar olgan.

Somalida Amerikaning "Bancroft Global Development" xususiy harbiy kompaniyasi Mogadisho yaqinida AQSH istehkom harbiy bazasini qo'riqlab uning manfaatini himoya qildi, shuningdek "Ash-Shabaab" jangarilariga qarshi kurashish maqsadida mahalliy harbiy xizmatchilarni tayyorlash uchun hukumat bilan 70 mln dollarlik shartnoma tuzdi.

Xususiy harbiy kompaniyalar xizmatidan xalqaro tashkilotlar tomonidan foydalanish holatlari ham ma'lum, jumladan "Dyn Corp" XHK Birlashgan millatlar tashkilotining (BMT) pudratchisi hisoblanadi.

Janubiy Afrika respublikasining (JAR) "Executive Outcomes" xususiy harbiy kompaniyasining taklifini BMT rad etdi. Kompaniya 1994 yili 120 mln dollar evaziga Ruanda davlatidagi etnik genotsidga barham bermoqchi edi, buning natijasida aholining 20% nest nobud qilindi.

O'rta va kichik biznes, harbiy mutaxassislar uchun to'lashga cho'ntagi ko'tarmaydi. Yirik neft konini qo'riqlash uchun XHK xodimi oyiga 6 ming dollar oladi. Amerikada yollanma mutaxassislarga kuniga 300-750 yoki oyiga 9-22 ming dollargacha to'lashga va'da beradilar. Agar faoliyat harbiy harakatlar zonasida bo'lsa, kuniga 1,2 ming dollar oladilar. Taqqoslash uchun AQSH armiyasining oddiy askari oyida-2,5 ming, kapitani-6 ming dollar oladi.

2003 yildan boshlab xususiy harbiy kompaniyalar shaxsiy tarkibi Iroqdag'i jangovar harakatlarda faol ishtirok etdi. Iroqda harakat qilinayotgan AQSH harbiy xizmatchilarining umumiy sonidan 10%ni shartnomaga asosidagi "yollanma" lar tashkil qildi. Jami bo'lib Iroqda 400 xususiy harbiy va qo'riqlash kompaniyalar xodimlari hukumat bilan tuzilgan shartnomani ado etdilar. 2019 yilga kelib yollanmalarning soni 53 ming, muntazam armiya harbiy xizmatchilariniki esa 35 mingni tashkil etdi.

Hukumatning xususiy kompaniyalarga murojaat etishi minimum ikki muhim vazifani hal etadi, birinchisi-o'zining askarlarini xavf ostiga qoldirmaydi, ikkinchisi-dunyo va OAV nazariga tushmaslik uchun rasman mojarolarga ishtirok etmaydilar.

AQSH armiyasining qo'mondonligi harbiy harakatlar zonasida harbiy xizmatchilar va xususiy harbiy va qo'riqlash kompaniyalar bilan hamkorlik qilish tartibi to'g'risida meyoriy-huquq hujjati qabul qildi.

#### Afzalligi va kamchiligi

Muntazam qurolli kuchlarning oldida xususiy harbiy kompaniyalarning afzalligi:

- xususiy harbiy kompaniyalarning qo'llanilishi aholiga muntazam qurolli kuchlarning qo'llanilishidek norozilik tug'dirmaydi;
- siyosiy nuqtai-nazardan zaif davlatning mahalliy qurolli kuchlariga bas kela oladi;
- zudlik bilan jangovar tartibga yoyilishga qodir;
- davlatning rasmiy bayonotida XHK shaxsiy tarkibining yo'qotishlari hisobga olinmaydi;
- tezkor (operativ) boshqaruv ancha ilgarilab ketganligi;
- muntazam qo'shnlarga nisbatan yuqori professional tayyorgarlikka ega (lekin professionalliklari kontrakt asosidagi harbiy xizmatchilar oldida shubha uyg'otadi).

#### Xususiy harbiy kompaniyalarning kamchiliklari:

- shaxsiy tarkibning g'oyaviy va mafkuraviy maqsadlari mavjud emasligi;
- XHK ning shartnomaga kelishuvi doimo vaziyatni o'zgaruvchanligiga to'g'ri kelmaydi, shuning uchun tez o'zgaruvchanlik jangovar vaziyatdagi harakatlarini pasaytiradi;
- yagona tadbirlar (operatsiya) rejasi va XHK hamda qo'shnlarni tezkor boshqarish markazi yo'qligi;
- tezkor (operativ) xususiyatga ega ma'lumotlar bilan almashish yoki ma'lumotlarni to'liq emasligi bilan ifodalanadi.

#### Qurolli to'qnashuv va jangovar operatsiyalarga qatnashish

Xususiy harbiy kompaniyalar rivojlangan mamlakatlarning sobiq mustamlakasi bo'lgan Afrika va Amerika qit'asidagi mamlakatlarda davlat manfaatida harbiy to'ntarishlar sodir etib, ushbu mamlakatlar tepasiga yon bosadigan rahbarlarni keltirdilar, ularning yo'riqlariga kirmaganlar esa jismonan yo'q qilindi, jumladan Nikaragua, Panama, Grenada, Chili, Angola, Kongo. Bir qator qurolli mojarolarda qatnashib kelmoqdalar, muxolifat kuchlarga har tomonlama yordam ko'rsatmoqdalar xususan Suriya Arab Respublikasida, Liviyyada, MAR, Nigeriyada, Somalida.

Janubiy Afrika respublikasining (JAR) "Executive Outcomes" xususiy harbiy kompaniyasi Angola hukumat qo'shinlarini harbiy tayyorgarligi, shuningdek, isyonchi UNITA kuchlariga qarshi jangovar operatsiyalarni rejalashtirish va bevosita o'tkazish bilan shug'ullandi.

2008 yildagi Janubiy Osetiyadagi qurolli mojarodan oldin Isroilning "Defensive Shield" va "Global CST" xususiy harbiy kompaniyalarining 200 ta yo'riqchilar, amerikaning "Cubic", "MPRI" va "American Systems" xususiy harbiy kompaniyalarining 20-30 ta maslahatchi va 15 ta yo'riqchisi Gruziya armiyasi harbiy xizmatchilarini tayyorladi, bundan tashqari Gruziya armiyasi tarkibida amerikaning "Kellog" hamda "Brown and Root" xususiy harbiy kompaniyalarining xodimlari bevosita mojaroda qatnashdilar.

G'arbiy Yevropadagi xususiy harbiy kompaniyalarning bir necha yuzdan ortiq xodimlari 2011 yilda Liviya Jumhuriyati rahbari Muammar Kaddafini hokimiyatdan ag'darishga ishtirok etdilar.

2016 yilda Kongo demokratik respublikasi politsiyasi 64 ta xorijiy yollanmalarni davlat to'ntarishiga ayblab qamoqqa oldi, shulardan yarmi AQSH "AQMI Strategy Corp" va Janubiy Afrika respublikasining (JAR) "Executive Outcomes" xususiy harbiy kompaniyalarining xodimlari edi, keyinchalik ular mamlakatdan deportatsiya qilindi.

2014-2016 yillar Ukrainianada, xususan 2014 yili Qrim yarim orolini anneksiya qilishda, 2017-2018 yillari Suriyada rasmiy ravishda ro'yxatdan o'tmagan Rossiyaning "Vagner" xususiy harbiy kompaniyasi hukumat manfaatini ko'zlab jangovar harakatlarga qatnashdi, bundan tashqari Sudan, Liviya, CHAD, MAR va Mozambikda. Mozambikda esa ularni xizmati tabiiy gaz bilan to'landi. "Vagner" xususiy harbiy kompaniyasini Bosh razvedka boshqarmasining sobiq xodimi podpolkovnik Dmitriy Utkin tomonidan tuzilgan bo'lib, tarkibi 2,5 ming kishidan iborat, tahlilchilarning bayonotiga ko'ra "Vagner guruhi"- Kremlning-yashirin kuchi hisoblanadi.

Yuqoridagi bayonotdan kelib chiqib, shuni xulosa qilish mumkinki, haqiqatdan ham yollanma askarlarning mafkuraviy g'oyasi qat'iy emas, yollanmalar hozirgi kunda kim tomonidan mablag' to'lansa, shuning tomonida jang qiladi.

Harbiy operatsiyalarni xususiy pudratchilar tomonidan qo'llab- quvvatlanishi, ko'pincha komandir-bo'ysunuvchi o'rtasidagi tushunib bo'lmaydigan munosabat, imkoniyatga bog'liqlik, muhim ishlarni nazorat qilish, axloq-odob va huquqiy jihatdan muammo tug'dirmoqda.

Juda qimmat narx, xususiy harbiy kompaniyalarni qo'llash qo'lmini oshirish harbiy va hukumat operatsiyalarini o'tkazishda kompaniya faoliyatidan unumli foydalanish, muammo keltirib chiqarmoqda.

Hozirgi paytda tajovuzkor-mamlakatlar geosiyosiy maqsadlarini noharbiy yo'llar orqali ro'yobga chiqarishga erishmoqdalar, ayni holatlarda harbiy choraga nisbatan samaralirog'i dushmanini jismoniy jihatdan yo'q qilmasdan o'zining izmiga to'liq bo'ysundirishdir.

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH  
VOLUME-6, ISSUE-4 (30-APRIL)**

Yirik hukmron mamlakatlar chet eldag'i o'z maqsad va manfaatini XHK yordami bilan erishmoqdalar.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zi yo'qdek, ovozi o'qdek. Sirli qo'shin.Kirishrejimi: <https://kun.uz>. Murojaatsanasi-04.04.2023.
2. Rossiya - Ukraina urushida jangovar harakatlar.Kirishrejimi: <https://daryo.uz>. Murojaatsanasi-01.04.2023.
3. Военная операция на Украине. Kirishrejimi: <https://www.rbk.ru>. Murojaatsanasi-03.04.2023.
4. РИА Новости сняло бой "Группы вагнера". Kirish rejimi: <https://ria.ru>. Murojaat sanasi - 01.04.2023.
5. Военное обозрение. Kirishrejimi: <https://topwar.ru>. Murojaatsanasi-05.04.2023.
6. Группа Вагнер-Википедия. Kirish rejimi: <https://ru.m.wikipedia.org>. Murojaat sanasi-05.04.2023.
7. Частные военные компании. Kirish rejimi: <vk.link/wagner2022org>. Murojaat sanasi-05.04.2023.
8. Dunyo tartibini o'zgartirga urush: Ukraina-Rossiyadagi jangovar harakatlarda xususiy harbiy kompanyalar.Kirishrejimi: <https://www.gazeta.uz>. Murojaatsanasi-04.04.2023.